

## O'SMIRLAR MUSIQIY TARBIYASIDA AKADEMIK XONANDALIKNING O'RNI

**Orifjonov Husniddin G'ayratjon o'g'li**

*O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Akademik xonandalik yo'nalishi 2-kurs  
magistri Toshkent tumani 32-sonli BMSM o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yosh avlod tarbiyasida musiqaning o'rne, akademik xonandalik haqida umumiy tushunchalar, uning kelib chiqish tarixi hamda mazmun-mohiyati yoritilgan. Shu bilan birga o'smir yoshdagi bolalar ovozi bilan ishlash va to'g'ri kuylash uslublari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Musiqiy tarbiya, akademik xonandalik, vokal maktabi, belkanto, rezonator, diapazon, tembr, orfoepiya, dinamik belgilar.*

Bizga ma'lumki yosh avlodni estetik va ma'naviy tarbiyalashda musiqaning o'rne beqiyosdir. Ayniqsa o'smir yoshdagi bolalar tarbiyasida musiqa muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa haqida bobomiz Abu Ali Ibn Sino "Musiqa-kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli ta'sir etuvchi estetik vositalardan biridir" deydi. Bundan kelib chiqadiki, musiqa insonga tez ta'sir etuvchi va emotsional hissiyatini aktiv rivojlantiruvchi vositadir. Shunday ekan biz yosh avlodning musiqiy tarbiyasiga jiddiy e'tibor bermog'imiz lozim.

Akademik xonandalik yoshlarning musiqiy tarbiyasidagi muhim omillardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan biz yoshlarning tinglash va kuylash malakalarini shakllantirishimiz darkor. Buning uchun avvalo ularning ovoz imkoniyatlarini aniqlashimiz, ularga o'z ovozlari to'g'ri yo'lga qo'yish usullarini hamda akademik kuylashda samara beradigan uslublarni to'g'ri tushuntirishimiz kerak. Zero, iste'dodli akademik yo'nalishda kuylovchi xonanda uchun kuylash qancha oson bo'lsa, milliy yo'nalishda kuylash ham shuncha oson bo'ladi.

Har bir kasbni o'rganish tarixi bo'lgani kabi akademik xonandalik san'atining ham o'z maktabi bor. Dunyo bo'ylab eng ko'p tarqalgan vokal maktablari italiyan, fransuz, nemis va rus maktablaridir. Bizda akademik kuylash uslubi asosan rus xonandalik maktabi tajribasiga tayangan. Rus xonandalik maktabi esa o'ziga xoslikni saqlagan holda Italiya, Fransiya va Germaniya vokal maktablarining boy udumlarini o'zlashtirdi. Ushbu vokal maktabida milliy ifoda va uslublarning ko'p qirraliligini kuzatishimiz mumkin. Bu uslublarga ega inson barcha tillarda a'lo darajada kuylay oladi. Bunda nafasdan foydalanish, tanglay ish faoliyati, ya'ni rezonatoridan to'g'ri foydalana bilish va matnga yuqori e'tibor katta ahamiyatga egadir. Boshqa milliy xonandalik maktablaridan farqli ravishda rus xonandalik maktabi italyan belkanto uslubini o'zida mujassamlashtirgan va rivojlantirgan. Bunga rus tilidagi (italyan va ukrain tillariga o'xshash) unli harflarning kuychanligi sabab bo'lgan.

Akademik yo'nalishda barcha millat vakillari kuylay oladilar, lekin doim talaffuz etishda o'zgarish ro'y beradi. Chunki, til ovoz naychalarining vibratsion ishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ta'sir ko'rsatibgina qolmay, kekirdak faoliyatida ham katta o'rin egallaydi.

Akademik usulda kuylovchi xonandalar uchun eng zarur vosita hisoblanuvchi ovoz kuchi, u yashaydigan iqlim muhitiga ham bog'liqdir. O'rta Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston hududida yashab ijod qilayotgan va ulg'ayayotgan yosh avlod kuchli va baquvvat ovoz, keng diapazon va chiroyli tembr bilan yuksalmoqda. Eng asosiysi yosh xonandalarning har biri o'ziga xos ovoz sohibidir. Ular akademik usulda yozilgan asarlarni kuylash jarayonida avvalo nafasni qovurg'aning pastiga, ya'ni qoringa shovqinsiz olishlari va tejab ishlatishlari kerak bo'ladi. Ijro jarayonida esa tomoqni siqmagan holda barcha registordlarda yuqori holatda (bunda tanglay muhim vazifani bajaradi) ovozni erkin qo'yib sof va toza kuylash talab etiladi. Bundan tashqari asar qaysi tilda yozilganligiga qarab, so'zlarni to'g'ri, ya'ni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda talaffuz qilish shart. Xonanda akademik usuldagi asarni kuylash jarayonida ovozining jarangdorligini, chiroyli tembrini ko'rsata olishi, dinamik belgilarga asosan kuylashi va kuylash davomida asarning asl ma'nosini tinglovchiga yetkazib bera olishi, asarnig ichki his tuyg'ularini ko'rsatib berishi lozim.

Har qanday millatga mansub qo'shiqchi uchun to'g'ri kuylash muhimligini ta'kidlab mashhur qo'shiqchi G'ulom Abdurahmonov shunday degan edi: "Milliy vokal uslubi nutqning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Eng asosiysi tilning nozikligini his etishdir. Har qaysi millatda o'zining nutq uslubi va o'ziga xos intonatsiya xususiyatlari bo'ladi. Mana shularni qo'shiqda aks ettira olish kerak. Italiya maktabidan opera tovushini va uning yo'nalishini olish, kuylash usuli esa har bir millatning tiliga mos bo'lishi lozim".

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga jahon xalqlari musiqa san'atida yetakchi o'rinlardan birini egallagan akademik xonandalik san'ati sir asrorlarini chuqur o'rgatishimiz va o'z ovozlarni to'g'ri tarbiyalashlarida yo'l-yo'riq ko'rsatishimiz darkor.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Dmitriyev L.B. "Vokal texnikasi asoslari". - M.: "Musiq". 2000 yil.
2. M.Razzoqova "Akademik xonandalik asarlariga kirish". – T.: 2015 yil.
3. X. Boymirzayev va boshqalar. "Musiq o'rganish metodikasi". - T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1995 yil.
4. Abu Ali Ibn Sino "Kitob-ash-shifo" asari.
5. G'. Abdurahmonov "Tamara qizga" kitobi.